



FAN: | Suv resurslaridan mukammal foydalanish.

Mavzu

Daryo havzasining umumiyl suv
resurslari. Yer usti, yer osti suvlari
hamda atmosfera yog‘inlari hisobi.



Ibrohim Israilov



E va SRB kafedrasi assistenti.

Amaliy mashg‘ulot



Daryo havzasining umumiyluv resurslari. Yerusti, yer osti suvlari hamda atmosfera yog'inlari hisobi.



Reja:

1. Daryo xavzasining yer usti suv resurslarining hajmini aniqlash.
2. Yog'ingarchilikning umumiyluv resurslari shakllanishiga ta'siri.
3. Yer osti suvlaring havzadagi umumiyluv suvlarning shakllanishiga ta'siri.
4. Daryo havzasining umumiyluv resurslari.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Valiyev X. I. va boshqalar.

Suv resurslaridan mukammal foydalanish. Toshkent 2008y.

2. Saloxiddinov A.T. va boshkalar.

Suv resursslariini boshqarish. Toshkent 2016 y.

3. Saloxiddinov A.T., Boirov R.Q., Milov K., Taha R., Zigler D.

Suv resursslariini havzaviy boshqarish va rejalahshtirish. Toshkent 2020y.

4. Valiyev X.I. Suv resurslaridan mukammal foydalanish fanidan


“Daryo xavzasini suv resurslaridan mukammal foydalanish va muxofaza kilish” shak/loy.sini bajarish buyicha uslubiy ko‘rsatma. TIMI,2012y.

5. Saloxiddinov A.T., Ashirova O.A.


Suv resursslariini havzaviy rejalahshtirish va boshqarish. Toshkent 2020y.

6. Valiyev X.I. Suv resurslaridan mukammal foydalanish fanidan

“Suv resurslaridan mukammal foydalanish” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni tashkillashtirish va o‘tkazish buyicha motodik ko‘rsatma. TIMI,2012y.



Daryo xavzasining umumiyl suv resursslaringin hajmini aniqlash



- Daryo xavzasining yer usti suv resursslari
- Daryo xavzasining atmosfera yog'in suvlari
- Daryo xavzasining yer osti suv resursslari

Yillik umumiyl suv resursslari
miqdori quyidagi formula bilan topiladi:

$$W_{um.} = W_{y.u.} + W_{y.o.} + W_{yog'}$$

Daryo xavzasining yer usti suv resurslarining hajmini aniqlash.

Yillik oqim - bu ma'lum bir xavzadan yil davomida oqb o'tgan suv miqdori.

Kommunal xujaligini suv bilan ta'minlashda, hamda sug'orishga, energetikaga va boshqa suv iste'molchilariga zarur bo'lgan daryo xavzasining suv resurslari 50, 75, 80, 90, 95 % li ta'minlanganlik uchun xisoblanadi.

Kursatkichlar	Ta'minlanganlik % da				
	50	75	80	90	95
K_i					
$W_t = K_i * W_o$					
Kuzatilgan yillar					

Xisoblangan yer usti suvlarining oylar bo'yicha taqsimlanishi.

3-jadval

%	Ko'rsatkichlar	O'lchov	Yillik	2,68	2,42	2,68	2,59	2,68	2,59	2,68	2,68	2,59	2,68	2,59	2,68
		Birligi	Xajm	I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	IX	X	XI	XII
50	Xaqiqiy yil(1994) Q	m ³ /s	396	611,0	642,0	444,0	168,0	168,0	761,0	359,0	435,0	511,0	368,0	182,0	105,0
	Xaqiqiy yil (1994)W	mln m ³ /y	12488,3	1637,5	1553,6	1189,9	435,1	450,2	1971,0	962,1	1165,8	1323,5	986,2	471,4	281,4
	Oqim miqdori	%	100,0	13,1	12,4	9,5	3,5	3,6	15,8	7,7	9,3	10,6	7,9	3,8	2,3
	50% li ta'minlargan oqimni taqsimlash	mln m³/y	12243,8	1605,4	1523,2	1166,6	426,6	441,4	1932,4	943,3	1143,0	1297,6	966,9	462,2	275,9
75	Xaqiqiy yil(2003) Q	m ³ /s	327,9	208,0	100,0	108,0	429,0	582,0	757,0	621,0	492,0	168,0	100,0	152,0	304,0
	Xaqiqiy yil (2003) W	mln m ³ /y	10341,0	557,4	242,0	289,4	1111,1	1559,8	1960,6	1664,3	1318,6	435,1	268,0	393,7	814,7
	Oqim miqdori	%	100,0	5,4	2,3	2,8	10,7	15,1	19,0	16,1	12,8	4,2	2,6	3,8	7,9
	75% li ta'minlargan oqimni taqsimlash	mln m³/y	9896,0	533,5	231,6	277,0	1063,3	1492,6	1876,3	1592,7	1261,8	416,4	256,5	376,7	779,7
80	Xaqiqiy yil (2004) Q	m ³ /s	298,8	264,0	211,0	185,0	269,0	393,0	592,0	494,0	411,0	190,0	107,0	169,0	300,0
	Xaqiqiy yil (2004)W	mln m ³ /y	9421,4	707,5	510,6	495,8	696,7	1053,2	1533,3	1323,9	1101,5	492,1	286,8	437,7	804,0
	Oqim miqdori	%	100,0	7,5	5,4	5,3	7,4	11,2	16,3	14,1	11,7	5,2	3,0	4,6	8,5
	80% li ta'minlargan oqimni taqsimlash	mln m³/y	9403,7	706,2	509,7	494,9	695,4	1051,3	1530,4	1321,4	1099,4	491,2	286,2	436,9	802,5
90	Xaqiqiy yil (2006) Q	m ³ /s	265,0	150,0	307,0	163,0	164,0	549,0	107,0	402,0	236,0	488,0	388,0	119,0	108,0
	Xaqiqiy yil (2006) W	mln m ³ /y	8357,0	402,0	742,9	436,8	424,8	1471,3	277,1	1077,4	632,5	1263,9	1039,8	308,2	289,4
	Oqim miqdori	%	100,0	4,8	8,9	5,2	5,1	17,6	3,3	12,9	7,6	15,1	12,4	3,7	3,5
	90% li ta'minlargan oqimni taqsimlash	mln m³/y	8078,4	388,6	718,2	422,3	410,6	1422,3	267,9	1041,4	611,4	1221,8	1005,2	297,9	279,8
95	Xaqiqiy yil (2007) Q	m ³ /s	261,0	174,0	146,0	156,0	299,0	597,0	255,0	154,0	452,0	271,0	298,0	172,0	154,0
	Xaqiqiy yil (2007) W	mln m ³ /y	8230,9	466,3	366,5	418,1	774,4	1600,0	660,5	412,7	1211,4	701,9	798,6	445,5	412,7
	Oqim miqdori	%	100,0	5,7	4,5	5,1	9,4	19,4	8,0	5,0	14,7	8,5	9,7	5,4	5,0
	95% li ta'minlargan oqimni taqsimlash	mln m³/y	7131,7	404,0	317,5	362,2	671,0	1386,3	572,2	357,6	1049,6	608,2	692,0	386,0	357,6

Yillik umumiy suv resurslari miqdori quyidagi formula bilan topiladi:

$$W_{um.} = W_{y.u.} + W_{y.o.} + W_{yog'}$$

Daryo suvining oqib kelayotgan miqdori ($W_{y.u.}$) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$W_{y.u.} = W_{y.u.}^{x.o} + W_{y.u.}^{x.o.n}$$

Bu yerda:

$W_{y.u.}^{x.o}$ - gidrometrik post bo'yicha xisobga olingan daryo suvining miqdori.

$W_{y.u.}^{x.o.n}$ - xisobga olinmagan daryo suvining miqdori.

O'rta Osiyo uchun V.A. Shul's formulasi bo'yicha daryo suvining xisobga olinmagan miqdori taxminan xisobga olingan suv miqdorining 4-5% tashkil qiladi.

Daryo suvining hisobga olinmagan miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$W_{y.u.}^{x.o.n} = W_{y.u.}^{x.o} \text{yil}(oy) * 0.05, m^3/yil(oy)$$

Yillik yog‘ingarchilik miqdori quyidagi formula bo‘yicha xisoblanadi:

$$W_{yog} = F_{um} * K * h \quad m^3/yil$$

Bu yerda:

F_{um} - havzaning umumiyl maydoni, m^2

h – ko‘p yillik o‘rtacha oylik yog‘inlar me’yorining yigindisi, mm

K - shimalishi koeffitsenti bo‘lib, $K=0,15$ deb qabul qilamiz.

Ko‘p yillik tajriba tadqiqotlari ma’lumotiga ko‘ra taxminan qish-bahor davrida yoqqan yog‘inlarning 15 foizi yer osti suvlari sathiga singib borib uni resursini to‘ldiradi qolgan qismi esa bug‘lanishga sarflanadi.

Mamlakatimizda gidrometeorologiya xizmati umum davlat xizmati hisoblanib, uning vazifasi xalq xo‘jaligini gidrometeorologik ma’lumotlar bilan ta’minlashdir.

Daryolar va boshqa suv obyeklaridagi suv miqdori vaqt davomida o‘zgarishini kuzatish, uning o‘ziga xos qonuniyatlarini ochish, o‘zgarishga sabab bo‘luvchi omillarni aniqlash muhim hisoblanadi.

Yer osti suvining yillik miqdori quyidagi formula bo‘yicha xisoblanadi:

$$W_{y.o} = Q_{y.o} * T \quad m^3/yil$$

Bu yerda:

Q_{y.o} – yer osti suvlari oqimining sarfi, m^3/sek

T – vaqt. bir yildagi sekundlar soni, $T=31,536 \text{ mln sekund}$

Daryo xavzasining yer osti suv resurslari haqidagi kerakli ma'lumotlarni gidrogeologiya ilmiy tadqiqot institutidan olamiz. Yer osti suvlari oqimining oylar bo‘yicha o‘zgarish dinamiqasi sezilarli darajada o‘zgarmasligi sababli oylik yer osti suv oqimini bir xil deb olib ketamiz, ya’ni yillik yer osti suv oqimini 12 oyga teng taqsimlaymiz.

Daryo xavzasining umumiyligi (Ekspluatatsion) suv resurslari hisobini bajarishda yer usti, yer osti hamda yog‘ingarchilik suvlarining umumiyligi yig‘indisini hisoblaymiz (4-jadval). Yer usti suvi oqim miqdorini hisoblaganda yer usti suvining hisobga olinmagan qismini inobatga olish lozim.

Daryo xavzasining ekspluatatsion suv resurslari hisobi quyidagi formula bo‘yicha xisoblanadi:

$$W_{um} = W_{y.u.}^{x.o} + W_{y.u.}^{x.o.n} + W_{y.o.} + W_{yog'}$$

Daryo xavzasining umumiy (Ekspluatatsion suv resurslari) xisobi jadvali. 4 – jadval



E'tibor uchun rahmat!

